

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILTLARIDA BOLALARGA CHET TILLARINI
O`RGATISH JARAYONIDA MAVJUD QIYINCHILIKLAR VA IMKONIYATLAR**

Egamkulova Aziza

SamDCHTI magistranti

Diyarov Akmal

SamDUKF o'qituvchisi

Annotation: This article discusses effective methods of teaching foreign languages to young children.

В данной статье рассматриваются эффективные методы обучения иностранным языкам детей раннего возраста.

Ushbu maqolada yosh bolalarga chet tillarini o'rgatishning samarali usullari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: til, muloqot, metodika, o'yin, taassurot, pantomima, obraz.

Bizga ma'lumki qadimdan chet tillarini o'rganishga talab katta bo'lib kelmoqda. Xususan bugungi kunda ham muhtaram prezidentimiz SH.Mirziyoyev tomonidan 2021-yilning may oyida Vazirlar Mahkamasi huzurida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligiga asos solgan bo'lib, bu idora zimmasiga ta'limning barcha bosqichlarida o'qitish usullarini tadbiq etish, samarali dastur va darsliklar ishlab chiqarish vazifasi yuklatilgan. Ushbu sa'y-harakatlar doirasida hukumat O'zbekiston fuqarolari va umuman raqobatdoshligini oshirish ko'tilayotgan 10 ta tilni tanlab olgan. Ulardan eng asosiy urg'u ingliz tiliga qaratilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi prezidentining 10-dekabr kuni qabul qilingan qaroriga binoan, 2013-o'quv yildan boshlab maktablarda ingliz tilini 1-sinfdan boshlab o'rgatish joriy qilindi. O'zbekistonda ingliz tilini metodikasi va dasturlarini ishlab chiqish va qo'llanmalarini yaratishda AQSH, Angliyada mutaxassislar va Ta'lif vazirliklariga yaqindan ko'mak beradi. Masalan, AQSH Markazi Osiyo davlatlari uchun "Hududiy ingliz tili markazi" (Regional English Language Office) tashkil etgan. Idora regiondagи ingliz tili o'qituvchilar malakasini oshirish uchun muntazam ravishda treyning va seminarlar tashkil etgan.

Hozirda maktablar qatorida ham maktabgacha ta'limda ham ingliz tilini o'rgatish tobora rivojlanib bormoqda. Maktabgacha va Boshlang'ich ta'limdagi bolalar uchun bu balki murakkab hisoblanishi mumkin. Ammo taraqqiyotimiz rivojlanib borgan sari raqobat kuchayib bormoqda. Albatta raqobat bor joyda rivojlanish bo'lgani kabi bu maktabgacha bo'lgan ta'limda ham ko'plab iqtidorli talabalar yetishib chiqmoqda. Bu yo'l ish

bo'yicha o'qiyotgan talabalarga prezidentimiz tomonidan ham juda ko'plab imkoniyatlar berilmoqda. Bu borada bolalarga chet tilini o'rgatish uchun ham o'z metodlari bor. Masalan, avvalam bor darsda bolalarni diqqatini bitta joyga ya'ni darsga qaratib olish kerak. 3-4 yoshdagi bolalarning hissiyotlari yaxshi rivojlangan bo'ladi. Ya'ni qo'rquv, jahl, qayg'urish ularning yuzidan juda yaqqol ko'rnavdi. Ular boshqa bolalar bilan urushib qolishi, nimagadir totishib qolishi va boshqa biriga qayg'urishlari mumkin. 5-6 yoshdagi bolalar esa o'z harakatlarida hissiyotlarni bevosita namoyon etishdan o'zini tuta olishi yoki oliy hissiyotlariga asoslanib harakat qilishi mumkin. Shu asosda har bir bolaga bir xil tarzda dars o'ta bilish kerak. Darslarni xursandlichik va o'yinlar tarzida olib borsa yosh bolalarda til o'rganishga bo'lgan qiziqish uyg'onadi va vazifalarni ham vaqtida qilishga va darslarda faol qatnashishga harakat qiladi. Maktabgacha bo'lgan bolalarning xotiralari o'zlarining faoliyatları uchun qandaydir ahamiyatga ega bo'lgan, ularda kuchli taassurot qoldirgan va ularni qiziqtirgan nasralarni beixtiyor eslarida saqlab qoladilar. Ya'ni bog'cha yoshdagi bolalarga dars o'tishning o'z metodikasi bor. Bu yoshdagi bolalar ko'rgan va eshitgan narsalarini juda tez yod olishishadi. Shu yo'l natijasida bolalarga ingliz tiliga oid qiziqarli videolar, ashulalar, musobaqalar, o'yinlar orqali darslarni qiziqarli o'tqazish o'qituvchining asosiy vazifasi hisoblanadi. Ularga musobaqalarda g'olib bo'lgan bolalarga har xil sovg'alar bilan taqdirlansa, boshqa bolalar ham shu bolaga tanqid qilish orqali ham o'rganib boradi. Har bir darslarda bolalarga ingliz tiliga oid qisqa janrdagi qiziqarli va kulguli bo'lgan multfilmlar yoki video rolliklar qo'yilsa ulardagagi obrazlarning ish harakatlari orqali ham bolalar ularni mazmunini tushunishga harakat qila boshlashadi. Asosan, bolalar darslarda zerikib qolmasligi kerak bo'ladi, chunki bola zerika boshlasa undagi til o'rganishga bo'lgan qiziqishi kamayib boradi va u o'rganishni xohlamay qoladi. Dars jarayonida ham har xil o'yin va musobaqalar ham tashkillashtirish kerak. Masalan, ingliz tilining harflarini yod olishda, ingliz tilida she'rlar yod olishda juda ko'plab o'yinlar tashkillashtirsa bo'ladi. N.M.Aksarinaning takidlashicha, o'yin o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, buning uchun kamida uchta sharoitda bo'lishi lozim.

- a) Taassurotlar tarkib topishi; b) Har xil ko'rinishidagi o'yinchoqlar va tarbiyaviy ta'sir vositalarning muhayyoligi ;
 - c) Bolalarning kattalar bilan tez-tez muomala va muloqatga kirishuvi.⁶⁸
- Bunda kattalarning bolaga bevosita ta'sir ko'rsatish uslubi hal qilish rol o'ynaydi.

Maktabga borish bolalarning hayotida juda katta voqeа hisoblanadi. Maktab hayoti bolalarga yangi bir dunyoni ochib beradi. Keyin bolalarning barcha faoliyatлari, asosiy vazifasi va ijtimoiy burchi o'qish bo'lib qoladi. 6-7 yoshdagi bolalar uchun yangi faoliyat bo'lgan o'qish ulardan yangi sifat, yangi xususiyatlarga ega bo'lishni talab qiladi. O'qish faoliyati uchun bolalarga barqaror diqqat, o'tkir zehn, mustaqillik, ishchanlik va batartiblik xislatlari bo'lishi kerak. Bog'chadan maktabga o'tgan bolalarda kattalar bilan bo'lgan munosabatlarida ham katta o'zgarish paydo bo'ladi. Chunonchi maktab yoshiga yetgan bog'cha bolalari "Katta" deb hisoblanar edilar lekin ular maktabga chiqishganida, ular yana "Eng kichkinalar" qatoriga tushib qolishishadi. Bolalar bog'chasingiz asosiy vazifalari bolalarga har tomonlama tarbiya berish, ularning taraqqiyot darajalarini maktabda o'qiy oladigan aqilishdan iboratdir. Bu esa, o'z navbatida, maktabdagи o'qitish ishlari bilan bog'chadagi ta'lim-tarbiya ishlari o'rтasida ma'lum bir izchilik bo'lishini talab qiladi. Bog'chada bolalarni jismoniy jihatdan o'sishlariga qanchalik e'tibor berilsa, ularning aqliy va axloqiy o'sishlariga ham shunchalik e'tibor beriladi.⁶⁹ Bolalarning maktabdagи o'sish jarayoniga tayyorlashdagi asosiy vazifa bu ularning nutqlarini o'stirishdir. Shunday qilib, bolalarning maktabdagи o'qitishga tayyorgarligi shaxsnинг ijtimoiy yetuklik bosqichlaridan biridir. Lekin ijtimoiy taraqqiyotning bunday yetuklik bosqichiga bola o'z-o'zidan ko'tarilmaydi. Uni bu bosqichga bog'chadagi va oiladagi butun ta'lim-tarbiya ishi ko'taradi. Hozirda o'tgan 2021-yildan chet tiliga bo'lgan e'tibor tobora kuchayib borayapti. 2021-yildan chet tili o'qituvchilardan milliy va xalqaro sertifikatlarga ega bo'lishlari talabi kiritilishi haqida takidlanmoqda. Bu esa biz bo'lajak chet tilli o'qituvchilar yelkasiga ulkan ma'suliyatni yuklaydi. Endi esa an'anaviy darslarda AKT dan foydalangan holda interfaol tarzda darslar olib borilishi kerak. Bu ta'lim hozirda davr talabi ham bo'lib qolayapti. Bu ta'limda o'qituvchi va o'quvchilar ham o'z ustida ko'proq ishlashiga to'g'ri keladi. Yana shuni ta'kidlab o'tish ham kerakki, respublikamizda chet tilining o'qitilishi va chet tili o'qituvchilarning balim va ko'nikmalarini baholashning umumevropa tavsiyanomalari ya'ni (CEFR) mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko'ra umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari uchun darsliklar yaratilmoqda. Chet tili fani o'rganishga bo'lgan talab ham kundan-kunga oshdi. Chet tili fani to'rt aspectga (o'qish, yozish, tinglab tushuncha va gapirish) bo'linib, ularning har biri bo'yicha alohida tushuncha va ko'nikmalar berildi.

Eng qiziqarli metodlardan biri – “Pantomima” o‘yinida 3 kishi ajratiladi. Har bir guruhdan bittadan kishi doskaga chiqariladi. Ularga turli so‘zlar ro‘yxat asosida beriladi. Ular biror bir so‘z aytmasdan imoishoralar, harakatlar orqali, so‘zlarni qolgan guruh a’zolariga tushuntirish kerak.

“Muammoli vaziyatlar yechimi” (Creative Problem Solving) bu usulni qo‘llash uchun hikoyaning boshlanishi o‘qib beriladida qanday yakun topishi o‘quvchilar, talabalar hukmiga havola qilinadi.⁷⁰

Bu o‘yinlarning ham o‘ziga tegishli bo‘lgab vazifalari bor. Masalan, mana bu “Pantomima” bu o‘yin juda qiyin mavzu tushuntirilishi kerak bo‘lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, talabalar charchagan vaqtida foydalansa bo‘ladi. Yana bu “Hikoyalar zanjiri” usuli orqali o‘g‘zaki nutqini o‘sirishda katta yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda ingliz tiliga qiziqish uyg‘otish va darslarni qiziqarli tarzda o‘rgatishlarni rivojlantirish kerak. Bu borada ingliz tili darslarida innovatsion usullarni qo‘llash o‘quvchilarning mantiqiy va mustaqil fikrash qobiliyatini rivojlantiradi, og‘zaki nutqini ravonlashtiradi, tez va aniq javob berish malakasini shakllantiradi. Ta’lim tizimi o‘z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol yetuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qo‘yar ekan, kelgusida biz bo‘lajak pedagogiklar innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishimiz yo‘llarini yanada mukammalroq ishlab chiqishimiz bilan o‘z hissamizni qo‘shishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediya. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2006, 150-151-betlar.
2. Xo`jayev B.Q. Didaktik vositalar majmui. – Buxoro: 2007, 26-27-betlar.
3. Hasanboev J., To`raqulov X., Haydarov M., Hasanboeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug`at. –T.: Fan va texnologiya. 2009. 348-b.
4. Galskova N.D. Nikitenko Z.N. Chet tillarni o‘qitish nazariyasи va amaliyoti. boshlang‘ich maktab: uslubiy qo’llanma.-M.: Airis-press, 2004, 56-b
5. Trofimova G.S. Chet tillarni o‘qitishning pedagogik asoslari (Subaktika didaktikasi). - Izhevsk: Udmurt universiteti nashriyoti, 1999 y, 112-b